XALQ DEPUTATLARI KASBI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 14 - fevral VI-33-22-4-61-K/22 Kasbi tuman hokimligi

Tuman geografik obyektlari nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y. 41-son, 448-modda) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2021 yil 30 iyundagi 11/1948-sonli, 2021 yil 13 dekabrdagi 11/3631-sonli xulosalari va tuman hokimligining geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI :

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2021 yil 30 iyundagi 11/1948-sonli, 2021 yil 13 dekabrdagi 11/3631-sonli xulosalari va tuman hokimligining geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflari maqullansin.

2. Tumanda nomlari o‘zgartiriladigan obyektlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat kadastrlar palatasi tuman bo‘limi (SH.Mahmudov), tuman IIB bo‘limi (F.Asadov), tuman statistika bo‘limi va tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (F.Yusupov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda Geografik obyektlarning nomlari o‘zgartirilishi munosabati bilan hujjatlar rasmiylashtirilishini ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

4. Mazkur qaror “Sadoqat” gazetasida e’lon qilinsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Jo‘rayev va o‘rinbosari B.Eshonqulovlar zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **T.A.Meyliyev**

Халқ депутатлари Касби туман
Кенгашининг
2022 йил 14 февралдаги
VI-33-22-4-61-K/22-сон қарорига
1-илова

Kasbi tumanida nomlari o‘zgartiriladigan va qayta nomlanadigan Geografik obyektlar ro‘yxati.

t/r	Geogra fik obyekt larning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektlarning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘- 1	Yakkabog‘	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
2.	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-2	Boburchi	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
3.	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-3	Qal’ai sheron	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
4.	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-4	Dehvaron	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
5	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-5	Qo‘rg‘anak	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
6	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-6	Olmaliq	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
7	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-7	Suv otar	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
8	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-8	Qorovultepa	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
9	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-9	Beshqayrag‘och	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
10	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-10	Jiydali	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
11	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-11	Sarzamin	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
12	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-14	Nuryog‘du	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
13	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-15	Azimbuloq	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
14	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-16	Obod zamin	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
15	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-17	Qaynar	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
16	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-18	Qal’ai nur	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
17	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-19	Terakli	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq

18	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-20	Munchoqli	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
19	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-21	Kiyikdara	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
20	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-22	Oqbuloq	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
21	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-23	Qizilbuloq	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
22	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-25	Bog‘obod	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
23	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-26	Egarchilar	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
24	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-27	Moviy dara	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
25	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-28	O‘zbekiston Mustaqilligi	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
26	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-30	Yangi O‘zbekiston	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
27	ko‘cha	G‘alaba MFY	Yakkabog‘-31	Alqorli	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
28	Sardoba	Kasbi MFY	Ko‘hna Kasbi	Ko‘hna Kasbi	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
29	Sardoba	Kasbi MFY	Kasbi	Kasbi	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
30	Sardoba	Mushkqoqi MFY	Qamashi	Qamashi	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
31	Tog‘	Maymanoq MFY	Maymanoq	Maymanoq	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq